

О‘ЗBEK VA INGLIZ TILIDAGI MAQOLLARNING IZOHLARI VA ISHLATILISH VA MA’NOSIDAGI O‘XSHASHLIKLARI

Uzoqova Mehriniso Dilmurod qizi
BuxDPI Tillar fakulteti 1- bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek tili maqollari va ularning ingliz tilidagi ekvivalentlari qiyosiy tahlil qilinadi. O‘zbek maqollari o‘ziga xos mazmun, obrazlilik va xalqning hayotiy tajribasini ifodalovchi madaniy meros sifatida muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz maqollari til va madaniyat o‘rtasidagi o‘ziga xos o‘xshashlik va tafovutlar orqali o‘rganiladi. Qiyosiy tahlil orqali ikki tilda uchraydigan umumiy tushuncha va qadriyatlar aniqlanib, ularning turli ifoda shakllaridagi o‘ziga xos jihatlari ko‘rsatib beriladi. Ushbu izlanish natijalari lingvistik, tarjimashunoslik va madaniyatshunoslik sohalarida qiziqarli va foydali bo‘lishi kutilmoqda.

Kalit so‘zlar: ekvivalent, lingvistik, tarjimashunoslik, antiteza, dialektik birlik, poetik shakl.

Maqol - xalq og‘zaki ijodi janri; qisqa va lo‘nda, obrazli va obrasiz, grammatik va mantiqiy tugallangan ma’noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli. Muayyan aniq shaklga ega. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg‘ulari, ijobiy fazilatlari mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan. Maqollar mavzu jihatdan nihoyatda boy va xilma-xil. Vatan, mehnat, ilm-hunar, do‘stlik, ahillik, donolik, hushyorlik, til va nutq madaniyati, sevgi va muhabbat kabi mavzularda, shuningdek, salbiy hislatlar xususida rangbarang maqollar yaratilgan. Maqol uchun mazmun va shaklning dialektik birligi, ko‘p hollarda qofiyadoshlik, ba‘zan ko‘p ma’nolilik, majoziy ma’nolarga boylik kabi xususiyatlar harakterli. Maqollarda antiteza hodisasi ko‘p uchraydi. Maqollarning ijtimoiy-siyosiy va tarbiyaviy ahamiyati juda, xattoki, g‘oyat katta. Bilamizki, har bir tilda maqol, matal, hikmatli so‘zlar keng qo‘llaniladi. Ularning muqobil variantlarini ham boshqa tillarda uchratishimiz mumkin.

1. “Ko‘zdan yiroq, ko‘ngildan yiroq”

Ushbu maqol insonlar orasidagi yaqinlik va aloqani saqlashning ahamiyatini ifodalaydi. Unga ko‘ra, uzoqlashgan insonlar bir-biriga nisbatan hissiy iliqlikni yo‘qotishi mumkin. Ya‘ni, bevosita ko‘rish va aloqaning yo‘qligi tufayli insonlar bir-birini unutishi osonlashadi. Ingliz tilidagi muqobili “Out of sight, out of mind” bo‘lib, bu ham aynan shunday mazmunni bildiradi. Ikkala maqol ham inson tabiatiga xos xususiyatni – uzoqlashish bilan hissiy aloqaning susayishi mumkinligini ifodalaydi.

2. “Qiyinchiliksiz, natijaga erishib bo‘lmaydi”

Ushbu maqol inson mehnati va qat’iyatini qadrlashga qaratilgan. Bu maqolning mazmuniga ko‘ra, muvaffaqiyatga erishish uchun mehnat va sabr zarur, ya’ni hech qanday qiyinchiliklarsiz ulkan natijalarga erishib bo‘lmasligi bizga uqtirilgan. Ingliz tilida ham shu maqolga mos keluvchi maqol mavjud, albatta. “You can’t make an omelette without breaking eggs” bo‘lib, bu ham aynan shu mazmunga ega. Ikkala maqolda ham katta yutuq va muvaffaqiyatlar uchun mehnat va sinovlardan o‘tish zarurligi ta’kidlanadi. Ular insonlarni qiyinchiliklarni yengib, maqsad sari intilishga undaydi.

3. “Suyak suyakka tortadi” maqoli o‘zbek tilida oila va qarindoshlar orasidagi bog‘liqlikni ifodalaydi. Maqolga ko‘ra, yaqin qarindoshlar tabiiy ravishda bir-biriga mehr qo‘yadi, qiyinchilikda qo‘llab-quvvatlaydi va bir-biriga moyillik sezadi. Ingliz tilidagi muqobili “Blood is thicker than water” bo‘lib, bu ham yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi aloqaning kuchliligini ifodalaydi. Ikkala maqolda ham

oilaviy va qon-qarindoshlik rishtalari boshqa munosabatlardan kuchliroq ekanligi ta’kidlanadi.

4. “Qiziqqonlik ofat” maqoli insonning sabrsizligi yoki tezkor qarorlari yomon oqibatlarga olib kelishi mumkinligini anglatadi. Bu maqolda insonlarni o‘ylamasdan, qiziqqonlik bilan ish tutmaslikka chaqirish maqsadi bor. Ingliz tilidagi muqobili “Haste makes waste” bo‘lib, bu ham shoshqaloqlik va sabrsizlik ko‘pincha zarar keltirishini bildiradi. Ikkala maqolda ham tezkor va o‘ylanmagan harakatlar oqibatida noxush natijalarga duch kelish mumkinligi ta’kidlanadi.

5. “Tinch daryo chuqur bo‘ladi” maqoli o‘zbek tilida odatda kamgap va osoyishta odamlar chuqur bilim va donolikka ega bo‘lishini anglatadi. Ya’ni, bunday insonlar ko‘pincha chuqur fikrlaydi va ortiqcha so‘zlardan yiroq bo‘ladi.

Ingliz tilidagi muqobili “Still waters run deep” bo‘lib, bu ham xotirjam va kamgap insonlarning ichki boyligi yoki chuqur fikrlash qobiliyatiga ega ekanligini ifodalaydi. Ikkala maqolda ham osoyishta va sokinlik ko‘pincha katta bilim va tushunchani yashirishi mumkinligi ta’kidlanadi.

6. “Harakatda barakat” maqoli mehnat va faollik orqali muvaffaqiyatga erishish mumkinligini bildiradi. Bu maqolga ko‘ra, inson biror maqsad sari harakat qilsa, buning oqibatida baraka va yutuq keladi. Ingliz tilidagi muqobili “A rolling stone gathers no moss” bo‘lib, bu ham harakat va amaliy ishlar orqali muvaffaqiyatga erishish kerakligini ta’kidlaydi. Ikkala maqolda ham faqat so‘z bilan cheklanib qolmasdan, ish bilan band bo‘lishning ahamiyati ta’kidlanadi.

7. “Beshikdan to qabrgacha ilm izla” maqoli hayot davomida bilim olish va o‘qishni davom ettirishning muhimligini anglatadi. Bu o‘zbek xalqida ilm olishga bo‘lgan intilishni va uning umr bo‘yi davom etishi kerakligini ta’kidlaydi. Ingliz tilidagi muqobili “Learning is a lifelong journey” yoki “Never stop learning” bo‘lib,

bu ham bilim olish jarayoni hayot davomida to'xtamasligi kerakligini bildiradi. Ikkala maqolda ham inson hayoti davomida o'z bilim va ko'nikmalarini rivojlantirib borishi zarurligi ta'kidlangan.

8. "Mehnat qilmay non topilmaydi" maqoli tirishqoqlik va mehnat qilmasdan muvaffaqiyat yoki rizq-ro'zga erishish qiyinligini anglatadi. Bu o'zbek xalqida mehnat va mashaqqat orqali o'z maqsadlariga erishish zarurligini ifodalaydi. Ingliz tilidagi muqobili "No pain, no gain" bo'lib, bu ham muvaffaqiyat yoki yutuqqa erishish uchun mehnat va kuch sarflash kerakligini bildiradi. Ikkala maqolda ham yutuq va barakaga faqat astoydil ishlash orqali erishish mumkinligi ta'kidlangan.

9. "Do'st boshga ish tushganda bilinadi"

Bu maqolning ma'nosi shuki, do'stning haqiqiyliги va sodiqligi, faqat og'ir vaziyatlarda va yordamga ehtiyoj bor paytlarda sinovdan o'tadi. Ya'ni, qiyin vaziyatlarda yordam ko'rsatadigan odam asl do'st hisoblanadi. Albatta, bu maqolning ham ingliz tilidagi muqobili mavjud. "A friend in need is a friend indeed". Ikkala maqol ham odamlar orasidagi haqiqiy do'stlikni sinovdan o'tkazadigan vaqtlarni ta'kidlaydi. Hayotda do'stlarimizni faqat oddiy vaqtlarda emas, balki muammolar va qiyinchiliklar vaqtida ham tanishamiz. Shuning uchun, haqiqatda yordam beradigan do'stlar haqiqiy do'stlar hisoblanadi.

10. "Ikki kemani tutgan g'arq bo'ladi". O'zbek maqolida "ikki kemani tutgan g'arq bo'ladi" deb aytilishining ma'nosi shuki, bir odam bir nechta narsaga bir vaqtda e'tibor qaratganda, hech birida muvaffaqiyatga erisha olmaydi. "You can't serve two masters" yoki "A man who chases two rabbits catches neither" degan inglizcha maqollar ham xuddi shu ma'noni anglatadi. Ikki qarama-qarshi yoki bir-biriga zid maqsadni bir vaqtda bajarish imkonsizligini bildiradi. Ikkala maqol ham shuni ta'kidlaydi, ya'ni bir vaqtning o'zida turli xil va qarama-qarshi maqsadlar yoki vazifalar bilan shug'ullanish shaxsni muvaffaqiyatdan mahrum qiladi. O'zbekcha maqolda "g'arq bo'ladi" degan so'z, biron bir narsada muvaffaqiyatsizlikni anglatadi. Ingliz maqollarida esa, "ikki xo'jayin" yoki "ikki quyon" tushunchalari orqali biror narsani muvaffaqiyatli bajarish uchun aniq va bir yo'nalishda harakat qilish zarurligi ta'kidlanadi.

11. O'zbek tilida "Yeti o'lchab, bir kes" maqoli ehtiyotkorlik, o'ylab qaror qabul

qilish va harakat qilishni ifodalaydi. Bu maqol, biror ishni boshlashdan oldin barcha imkoniyatlarni va oqibatlarni chuqur o'ylab, ehtiyotkorlik bilan tahlil qilish kerakligini bildiradi. Yani, shoshilmasdan, yaxshilab o'lchab, keyin ishni amalga oshirish zarur. Inglizcha maqol "Look before you leap" shunchaki "sakrashdan oldin, yaxshi qarab ko'r" deb tarjima qilinadi va bu ham ehtiyotkorlikni, oldindan o'ylashni bildiradi. "Measure twice, cut once" esa "ikki marta o'lchab, bir marta kes" deb tarjima

qilinadi, bu ham harakat qilishdan oldin yaxshi tayyorgarlik ko'rish va xatolardan saqlanishga urg'u beradi. Ikkalasida ham biror ishni boshlashdan oldin ehtiyotkorlik va rejalashtirish zarurligini ta'kidlaydi. O'zbek maqolida "yetti o'lchab" degan ifoda, har bir jihatni yaxshilab o'lchab, ehtiyotkorlik bilan harakat qilishni anglatadi. Ingliz maqollarida esa, "look before you leap" va "measure twice, cut once" ham bu ma'noni ifodalaydi: har qanday qarorni qabul qilishdan oldin, uning oqibatlarini va natijalarini o'ylab ko'rish zarur.

12. "Qon bilan kirgan, jon bilan chiqadi" maqoli, kishilar o'z harakatlarining natijasini o'zlariga tortib olishini bildiradi. Agar kimdir yomon ish qilsa, uning natijasi ham yomon bo'ladi. Bu maqol, insonning amallari va qarorlari qanday bo'lsa, oqibatlari ham shunga mos kelishini ta'kidlaydi. Inglizcha muqobili: You reap what you sow". O'zbekcha maqol "Qon bilan kirgan, jon bilan chiqadi" faqatgina o'ziga yoki boshqalarga zarar yetkazgan kishilarni ayblash va bu yomon ishlarning oxir-oqibatda jiddiy oqibatlarga olib kelishini ko'rsatadi.

Inglizcha maqollar esa shunga yaqin ma'noda bo'lib, har bir amallaringizning natijasi bo'ladi degan tushunchani ifodalaydi. O'zbekcha maqolda "qon" va "jon" so'zlari og'ir va jiddiy oqibatlarni anglatadi, inglizcha maqollar esa umuman shunday adolat qonuni haqida gapiradi: har qanday harakat o'ziga mos natija olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

"O'zbek tilining izohli lug'ati"

"O'zbek tili" – Toshkent "O'qituvchi" NMIU, 2012

"O'zbek xalq maqollari"

"Practical English Usage" by Michael Swan

Internet ma'lumotlar